

SMTda avstriyalik mutaxassis bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



Joriy yil 28-oktyabrda SMTda parlament saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurgan Avstriyaning Yevropa tadqiqotlari va xavfsizlik siyosati instituti (AIES) boshqaruvi a'zosi, katta maslahatchisi Martin Saydik bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston-Avstriya munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari, Yevropa Ittifoqi doirasidagi hamkorlik, shuningdek, ikki mamlakat tahlil markazlari o'rtasida yaqin aloqalarni yo'lga qo'yish kabi masalalar ko'rib chiqildi.



Martin Sajdik O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar haqida ijobiy fikr bildirdi. Uning so'zlariga ko'ra, saylov jarayonining tashkil etilgani ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatidan dalolat beradi.

Shuningdek, uchrashuvda Toshkentning mintaqaviy siyosatiga ham alohida to'xtalib o'tildi. Avstriyalik ekspertning fikricha, ushbu siyosat qo'shni davlatlar bilan yaqin munosabatlar o'rnatish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. "Bu nafaqat yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatish, balki mintaqaviy muammolarni hal qilishda sa'y-harakatlarni birlashtirish imkonini berdi", - dedi Martin Saydik.

Tahlilchining fikriga ko'ra, Yevropa Ittifoqi yirik davlatlarining Markaziy Osiyoga e'tibor kuchayishi fonida Avstriya bilan ham gidroenergetika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va sanoatni qayta ishlash kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirish zarur.

Shu munosabat bilan tomonlar o'zaro manfaatli, barcha sohalarda tajriba va fikr almashish imkonini beradigan muntazam muloqotni yo'lga qo'yishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

AIES 1996-yilda tashkil etilgan mustaqil va notijorat tadqiqot instituti bo'lib, xavfsizlik, mudofaa va tashqi siyosat masalalarini o'rganadi.